



**NABI JALOLLIDDINNING “TEGIRMON” ROMANIDA JADID
ESTETIK IDEALINING OCHIB BERILISHI**

*Qarshi davlat universiteti
o'zbek adabiyoti yo'nalishi magistranti
Abduvaxobova Shoiraxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nabi Jaloliddinning “Tegirmon” romani sotsiologik va biografik metodlar asosida tahlil qilingan. Bu roman atoqli ijodkor, ma'rifatparvar jadid- Cho'lpon haqida bo'lib, asar uning dunyoga kelishidan tortib to vafot etguniga qadar bo'lgan davrni qamrab olgan. Ushbu jadid orqali SSRning xalq boshiga solgan kulfatlari, millat ziyolilarini kallaklash jarayoni bor bo'y-basti bilan ochib berilgan. Shuningdek, muqaddas tushunchalar, yetuk insoniy fazilatlar ulug'langan.

Kalit so'zlar: Tegirmon, Qatortol, jadid, boy, yo'qsul, savdogar.

Yurtimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari alohida e'tiborga molik bir davr hisoblanadi. Chunki bu davrda millatimizni ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan uyg'otishga qaratilgan jadidchilik nomi ostida katta kuch harakatga keldi. Jadid bobolarimizning eng muhim g'oyasi va vazifasi qullikka mahkum bo'lgan xalqni chin ma'noda hurlikka olib chiqish, savodsizlik zulmatida qolgan avlodga ilm-ma'rifat ziyosini yetkazish edi. Buni jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi, ma'rifatparvar Avloniyning “qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga” kirishilgani haqida aytgan gaplari ham tasdiqlaydi. Ta'kidlash joizki, mazkur davrda Turkiston milliy-taraqqiyparvarlik harakati – jadidchilikning muhim markaziga aylangan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma'naviy hayotida yangi – uyg'onish, o'zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma'muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto'g'ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo'lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug'ildi. Tabiiyki, bu jarayon oson kechmagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o'nlab ziyolilar rahnamolik qildilar. Jadidlar guruhiy, ijtimoiy va hududiy birlik to'g'risidagi masalalarni ko'tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongini XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar.



Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy "Padarkush" dramasiidagi ziyoli obrazi, Cho‘lponning "Kecha va kunduz" romanidagi savdogar obrazi va keyinchalik jadidlar ta'siriga tushgan Miryoqub obrazi, "Qurboni jaholat" hikoyasidagi Eshmurod obrazi, Abdulla Avloniyning "Biz va siz" dramasiidagi Kamol, "Abdurauf fitratning jadidchilik yo‘lidagi ilk nasriy asari bo‘lmish" "Hind sayyohi" qissasidagi hind sayyohi, "Chin sevish", "Ikki sevgi" "Hind ixtilolchilari" dramalari, Ismoil G‘aspiralining "Dorur rohat musulmonlari" asari qahramoni Abbos, Hamza qalamiga mansub "Zahar"

Mustaqillikdan so‘ng jadidlarning boy merosini o‘rganish, nafaqat badiiy asarlarda ularning siymosini tasvirlashga ham alohida e’tibor berildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jadidchilik harakati va uning vakillariga bo‘lgan qiziqish ancha kuchaydi. Shu davr adabiyotida jadid obrazlari tarixiy haqiqatni tiklash, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy uyg‘onishni aks ettirish vositasi sifatida keng yoritildi. Ushbu asarlarda jadidlar aslida kim ekanligi, ular xoin emas, aksincha chin millatparvar, fidoyi insonlar ekanligini ochib berish maqsad qilingan. Roman va qissalarda jadidlar millatparvar, ma’rifatparvar ziyoli sifatida, sovet qatag‘onining qurboni sifatida, bugungi avlod uchun ibrat timsoli sifatida gavdalantirildi. Shu bilan ko‘p haqiqatlar yuzaga chiqdi, tarixiy haqiqat xalqimizga badiiy voqelik yo‘sinida qaytarildi. Chunonchi, Nabijon Boqiy qalamiga mansub "Qatlnoma" hujjatli qissasi o‘zbek romanchiligiga tamal toshini qo‘ygan Abdulla Qodiriy kimlar, qachon, qayerda, qay yo‘sinda o‘ldirganliklari haqida so‘z yuritadi. Ijodkor asl haqiqatni ochish maqsadida, har bir tergov qo‘g‘ozi bilan shaxsan o‘zi tanishganini, hatto barcha dalillardan ilova keltiradi. Chin vaziyatni ochib berish uchun hech kimni ayab o‘tirmaydi. Hech bir joyni yashirmaydi, hech bir guvoh "tarafi"ni olmaydi. Bularning natijasi o‘laroq asar shunchalik badiiy qiymat kasb etdiki, kitob nashrdan chiqishi bilanoq qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi.

Jadid estetik idealining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Ma’naviy yuksaklik va uyg‘onish: Jadidlar estetik ideal sifatida ma’naviy jihatdan yuksak, milliy o‘zligini anglagan, dunyoviy ilmlardan xabardor "yangi inson" obrazini ilgari surdilar. Milliy va umuminsoniy uyg‘unligi: Jadid adabiyoti va san’atida milliy an’analarni saqlagan holda, G‘arbning ilg‘or madaniyati va texnikasi bilan uyg‘unlashish estetik ideal sifatida namoyon bo‘ldi. Mutaassiblikka qarshi kurash: San’atda eski, qoloq qarashlarni, diniy mutaassiblikni inkor etish, hayotni realistik tasvirlash orqali insonni faollikka chaqirish yetakchi o‘ringa chiqdi. Ijtimoiy-badiiy uyg‘unlik: Jadid mutafakkirlari (Behbudiy, Avloniy, Cho‘lpon va boshqalar) ijodida badiiy g‘oya va estetik maqsad bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, adabiyot millatni uyg‘otish vositasi sifatida qaraldi. Jadid estetik ideali - bu uyg‘oq shaxsdir. Nabi Jalolliddin qalamiga mansub "Tegirmon" romani o‘zbek



adabiyoti she'riyatida yangi yo'nalishni boshlab bergan Cho'lpon hayotiga bag'ishlangan biografik xarakterdagi tarixiy romandir. Roman dastlab Cho'lpon nomi ostida birinchi va ikkinchi kitoblardan iborat Ynagi asr avlodi nashriyotida ikki tomlik holda nashr etildi. Keyinchalik esa yaxlit kitob holida "Tegirmon" nomi ostida Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyida bosmadan chiqarildi. Romanda jadidlardan tashqari Madaminbek singari ozodlik uchun jonini tikkan millatninf fidoyi bobolarivmardikor olish siyosatining mudhish manzalari, Qo'qon muxtoriyatidagi fitnalar, xonliklarning qulashi, rus bosqini va uning o'lka hayotiga ta'siri kabi voqealar batafsil yoritilgan.

Millatning eng zababrdast shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, jadidi Cho'lpon hayoti voqealr ketma-ketligi asosida yoritilgan. Uni sotganlar ayovsiz ko'rsatib berilgan. Cho'lponning so'nngi kunlari, qatl etilishi, unga qo'yilgan ayblovlar va yangi ko'plba faktlar romanning badiiy qiymatini oshirgan. Bundan ko'rinadiki, ijodkor roman ustida ancha izlangan, shunchaki havas ortidan yozilmagan.

"Yozuvchi voqealarni bayon etishda eslash usulidan foydalanadi. Muqaddima bobdanoq yigirmanchilarga ishora qiladi." "Hotan arig'ining ularning hovlisiga tushadigan joyida shovva hosil qilinib, tegirmon o'rnatilgan edi. U bu tegirmonni bolaligidan biladi, goho haftalab tomosha ham qilib qolardi. Shovvanning tez oqayotgan suvi tegirmonning zil-zambil toshini oson aylantirayotgandek tuyuladi. Ust-boshi va yuz-ko'ziga qarab ketgan tegirmonchi qoplardagi bug'doyni tegirmon navbatiga oqizar, so'ng ishini davom ettirar edi. Shu tariqa voqealarni bayon etar ekan, roviy hayotni tegirmonga o'xshatadi."

"Tegirmon uning tip-qizil qo'ltig'ida edi. Uning qizil bulg'ichi ham qizil emasmi? Demak, shuning uchun hammayoq alvon-alvon ekan-da. Shu yerda nozik bir ta'kid bor: bu holat SSSRning hamma joylarida qizil bayroqni eslatadi, ya'ni qizil rangni hamma joyda ramz sifatida qo'llaganini yodga soladi."¹

Эрталабданоқ ишком узра кушлар сайри бошланган, хатто бир иккиси узум чўкишга ҳам киришиб кетганди. Буларнинг дастидан биронта мева соғ колмайди-я, ўйлади баззоз ва сўрток устунига ўраб қўйилган ипни олиб, бир-икки қаттиқ-қаттиқ силтади. Ишкомнинг у ер-бу ерига илинган эски-туски пақир, сатилу кўра-пўра сингари буюмлар бир-бирига тегиб, шақирлади. Чўчиб кетган узумхўр кушлар қочиб колдилар.²

1

2



“Voqealar uzoq-uzoq joylarda sodir bo‘layotgani aniq ko‘rsatiladi. Bu joylarni Andijon hududidan ham bemalol topish mumkin.” Hozir ham Andijon mahallalarini tong Sahar aylanadigan bo‘lsangiz, ayni shu manzaraga guvoh bo‘lasiz. Andijonda uzumzor uchun qilingan ishkomsiz uy uy emas. Hovli tasviridan so‘ng asar qahramonlari birma-bir tanishtiriladi.

Asarning yutug‘i shundaki, tarixiy haqiqat badiiy haqiqatga aylantirilib bugungi kun o‘quvchisiga havola etilgan. Eslash usuli orqali qo‘shimcha tafsilotlarga izoh berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nabi Jalolliddin “Jallod ayol” Yangi asr avlodi 2021-yil.
2. <https://share.google/aimode/UfIaz83ufxEYczqZ1>
3. <https://share.google/aimode/IbLs3I2YqEWNuUf3U>
4. Bahodir Karimov “Ruhiyat alifbosi” Yangi asr avlodi nashriyoti 2018.
5. <https://share.google/gQ6SEsHZMJlkBTCIb>
6. Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” www.ziyouz.com kutubxonasi